

О‘QUVCHILARNING YOZMA NUTQIDA FIKR IZCHILLIGINI RIVOJLANTIRISH

To‘ymurodova Sabrina Boboxonovna,

ToshDO‘TAU OTAT fakulteti 3-kurs talabasi

sabrinatoymurodova53@gmail.com

+998931372409

Annotatsiya: Mazkur maqolada umumta’lim maktab o‘quvchilarining yozma nutq ko‘nikmalarini shakllantirishda fikr izchilligini ta’minlash masalasi tahlil qilinadi. Yozma nutqni izchil va mantiqiy tarzda bayon etish malakasining rivojlanishi o‘quvchining fikrlash madaniyati, muloqot qobiliyati hamda til boyligiga bevosita bog‘liq ekanligi asoslab beriladi. Tadqiqot davomida ushbu muammoga olib keluvchi asosiy omillar, dars jarayonidagi metodik xatoliklar ko‘rsatib o‘tiladi. Shuningdek, fikr izchilligini shakllantirishga xizmat qiluvchi samarali metodlar va tavsiyalar bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: yozma nutq, to‘rt lisoniy malaka, matn yaratish, muammo, til o‘qitish metodikasi.

Annotation: This article analyzes the issue of ensuring coherence in the development of written speech skills among general secondary school students. It substantiates that the ability to present written ideas in a consistent and logical manner is directly related to the student’s thinking culture, communication skills, and language proficiency. The study identifies the main factors contributing to this issue, as well as methodological shortcomings observed in the teaching process. In addition, the article presents effective methods and recommendations for developing coherence in students’ written expression.

Keywords: written discourse, text creation, four language skills, problem, language teaching methodology.

Til inson hayotida aloqa vositasi sifatida muhim rol o'ynaydi. Tildan foydalanish orqali insonlar o'zaro fikr almashishadi. Tilni o'rganish va o'zlashtirish jarayonida yozma nutq muhim hisoblanadi. Yozma nutq faqatgina ta'lim jarayonida emas, balki inson butun hayoti davomida ehtiyoj sezadigan nutqiy ko'nikmadir. Boshqa nutqiy ko'nikmalarni egallash uchun ham yozma nutq ko'nikmasi zarur

hisoblanadi. O'quvchilar kundalik hayotidagi faoliyatining ko'p qismida yozma nutqdan foydalanishadi, masalan, uy vazifalarini bajarishda, boshqa fanlarni o'zlashtirishda, turli mashqlarni bajarishda, turli imtihonlarni topshirishda, hattoki, oddiygina kun tartibini rejalashtirganda, zarur narsalar ro'yxatini tuzganda, esdan chiqib qolmasligi uchun turli qaydlar shakllantirganda ham yozma nutqdan foydalanishadi. Yozma nutq inson hayoti davomida eng muhim nutqiy ko'nikma bo'lishiga qaramay, aynan, ushbu nutqiy ko'nikmani shakllantirishda va rivojlantirishda ko'p qiyinchilikka duch kelamiz. Turli mamlakatlarda tadqiqotchilar tomonidan o'tkazilgan va o'tkazilib kelinayotgan tajriba-kuzatuvlari ham aynan o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda turli muammolar va qiyinchiliklar

mavjud ekanligini ko'rsatadi. O'quvchilar ko'pincha lug'at boyligining yetishmasligi, yozayotgan narsasi haqida ma'lumoti yo'qligi, yozayotgan matn strukturalarini bilmasligi, fikr yo'qligi, g'oya yetishmasligi, yozayotgan matnni rejalashtira olmasligi, grammatik savodxonlik kamligi, imlo va tinish belgilaridan

to'g'ri foydalana olmasligi, manbalarning kamligi kabi to'siqlarga duch kelishadi. Yozma nutqni rivojlantirish boshqa nutqiy ko'nikmalarga qaraganda ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Chunki yozma savodxonlik mukammal darajaga yetishi uchun bir qancha bilimlar o'zlashtirilishi lozim. O'quvchilardan grammatik va mazmun jihatdan to'g'ri jumla qura olishi, so'z boyligiga ega bo'lib, har bir so'zni o'z o'rnida qo'llay olishi, o'z fikrini to'g'ri, ravon va izchil bayon eta olishi,

nutq uslublarini farqlay olishi hamda imlo va tinish belgilarini to'g'ri qo'llay olishi talab etiladi. Shuning uchun ham o'quvchilarda yozma nutqni rivojlantirish ancha qiyin va sekin kechadigan jarayon hisoblanadi. O'quvchi yozma nutqini tekshirib, uning xato va kamchiliklarini aniqlashda faqatgina imlo va tinish belgilariga

e'tibor qaratish yetarli emas. Ko'p holatlarda o'quvchilarning yozma nutqini tekshirish jarayonida matnning mazmun jihatiga e'tibor qaratilmaydi. Ammo o'quvchilarning ko'pchiligi yozma ishlarida asosiy mavzudan chetga chiqib ketishadi, o'z fikrlarini to'g'ri bayon eta olmaydi, fikrlarini dalillar bilan isbotlay olishmaydi. O'quvchilarning eng katta kamchiliklaridan biri so'z boyligining kamligidir. Shu sababli ham o'quvchilar takrorlardan ko'p foydalanishadi, so'zlarni ma'nodoshi bilan almashtira olishmaydi. O'quvchilarning yozma nutqini tekshirishda faqatgina imlo va tinish belgilariga e'tibor qaratmasdan, balki o'quvchi yozma nutqining mazmun jihati, so'zlarni o'z o'rnida to'g'ri qo'llay olishi, o'z fikrlarini asosli dalillar bilan bayon qila olishi, uslubga mos so'z tanlay olishi va ma'lumotlarni to'g'ri joylashtira olishiga e'tibor qaratish lozim. Yozma nutqni o'stirishda uch yo'nalish alohida ajratib berilgan:

- 1) so'z ustida ishlash;
- 2) so'z birikmasi va gap ustida izlash;
- 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

Ushbu uch yo'nalish parallel tarzda amalga oshirilib boriladi. Lug'at bilan ishlash gap tuzishga tayyorlaydi, so'z birikmalari va gap ustida ishlash esa bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. Bog'lanishli nutq esa, turli matn va insho lug'atini boyitish uchun xizmat qiladi. Albatta, o'quvchi yozma nutqining rivojlanishiga bir qancha omillar o'z ta'sirini o'tkazadi. O'quvchi yozma nutqining shakllanishi uchun bir qancha zaruriy bilimlarga ega bo'lishi zarur. O'quvchi uchun faqatgina lingvistik bilimlar yetarli bo'lmaydi. Ushbu lingvistik bilimlar asosida yozma nutqidagi xato-kamchiliklar kamayishi mumkin, lekin yozma nutqining mazmun-mohiyatini to'ldiruvchi hayotiy bilimlar, ekstralingvistik bilimlar ham zarur. O'quvchi yozma nutqi uchun beriladigan mavzu ham katta ahamiyatga egadir. Maktab o'quvchilarining ona tili darslarida yozma nutqini rivojlantirishga oid ilmiy asarlar, metodik qo'llanmalar, maqolalar, tezislar yozilgan bo'lib, ularga qisqacha to'xtalib o'tishni lozim topdik. D.R.Babayeva "Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi" nomli darsligida bolalarga ta'lim-tarbiya asosan beshta metodika asosida amalga oshirilishi, ularning ichidan eng asosiysi "Nutq o'stirish mashg'ulotlari" ekanligini ta'kidlab o'tadi. [D.R.Babayeva, 2018: 56].

O'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirish bo'yicha ba'zi metodik tavsiyalarni Q.Abdullayevaning "Birinci sinfda nutq o'stirish", N.Ahmedova "Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish usullari" (Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini takomillashtirish masalalari), X.Sapayevna "Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mustaqil ta'lim orqali nutq va tafakkurni rivojlantirish metodikasi" nomli dissertatsiyasi, darslik va qo'llanmalarda ko'rishimiz mumkin. N.Sattorova "O'quvchilarning insho yozish malakalarini takomillashtirish" nomli dissertatsiyasida 5-sinf o'quvchilarini insho yozishga o'rgatish masalalari yoritilgan bo'lib, o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirishga xizmat qiluvchi insho yozish metodikasi ilmiy tadqiq etilgan. [Sattorova, 1995: 141]. F.X.Holiqulova "Boshlang'ich sinflarda bayon yozishga o'rgatish orqali o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirish metodikasi" nomli dissertatsiyasida tadqiqotchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining yozma nutqini shakllantirishda bayon yozishning ahamiyati haqida so'z yuritadi. O'quvchilarning

yoza nutqini bayon vositasida rivojlantirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalar berib o'tilgan. Shuningdek, turli mavzu va uslubdagi matnlar yuzasidan yoza topshiriqlar bajarish o'quvchining yoza nutq haqidagi bilimlar va tasavvurlarini kengaytiradi. Yoza nutq tayyor bo'lishi jarayonida, albatta, o'quvchi o'zining ichki nutqiga tayanadi. O'quvchi ichki nutqida gaplarini aytish davomida yoza matnga aylantirib boradi, o'z fikrlarini qog'ozga tushiradi. "Ichki nutq yoza nutqning asosi. Yoza jarayonida o'quvchining nutq organlari so'zlarni bilinar-bilinmas talaffuz qilgani holda ularni harflarga ko'chira boshlaydi. Ma'lum harflar tushirib qoldirilgan so'zlarni to'g'ri yoza talab qilingan mashqlarda ham o'quvchi so'zni avval to'lig'icha ichida talaffuz qiladi va tushirib qoldirilgan tovushga muvofiq keladigan harfni topadi, shuning uchun ham o'quvchi tovush va harf munosabatlarini juda yaxshi bilishi lozim". [Esonova, 2020: 34]. Duglas Braun yoza nutqni grammatik tushunchalarni mustahkamlash va sinash uchun zarur vosita deb hisoblaydi. Bryne o'quvchilarning yoza nutqini qiyinlashtiruvchi sababni uchta toifaga ajratadi: lingvistik, psixologik va kognitiv. Jeremy Harmer yoza nutqni yaratishning 4 bosqichi borligini keltirib o'tadi. Ular quyidagilar:

1. Rejalashtirish.

Biror narsa yozilishidan avval nima haqida yozish rejalashtiriladi. Yozishni boshlashdan avval aynan nima demoqchi ekanliklari, nima yozmoqchi ekanliklari aniqlashadi. Yozma nutqni yaratishda rejalashtirish davomida uchta asosiy narsaga e'tibor qaratish zarur. Birinchidan, maqsadini belgilab olishi zarur. Chunki yozma nutqni yaratishdan maqsad matn turini tanlashga, yozma matnda foydalaniladigan so'zlarni qo'llashga ta'sir qiladi. Ikkinchidan, yozma matn kim uchun mo'ljallanganligiga, ya'ni ushbu matnning o'quvchisi kim ekanligiga e'tibor qaratiladi, shuningdek, matn uslubi tanlanadi. Va nihoyat, uchinchidan, yozma matnning tuzilishiga, fikrlarini, ma'lumotlarni qay tartibda joylashtirishga e'tibor qaratishi lozim.

2. Qoralama tuzish.

O'quvchi o'z fikrlarini qoralama sifatida yozma shaklga solib boradi. Yozma matnini tahrirlash jarayoniga tayyorlaydi.

3. Tahrirlash yoki qayta ko'rib chiqish.

Qoralama yozilgandan so'ng u qayta o'qib chiqiladi. O'zining xato va kamchiliklarini aniqlaydi. Tahrirlash jarayonida noo'rin qo'llanilgan so'zlar boshqasiga almashtirilishi mumkin. Matn paragraflarida chalkashliklar, matn uslubi va boshqa shu kabi kamchiliklar bartaraf etiladi. Ko'pincha qayta ko'rib chiqish jarayonida o'quvchilar bir-birlariga yordam beradilar.

4. Yakunlash.

O'z ishlarini tahrirlab bo'lishgandan so'ng, so'nggi matn nusxasi tayyor bo'ladi. Bu matn dastlabki yozilgan matndan farq qilishi tabiiydir, tahrirlash jarayonida matnda turli o'zgarishlar sodir bo'ladi. Barcha bosqichdan so'ng matn tayyor holga keladi.

Yozma matn tayyor bo'lguncha mana shunday murakkab jarayonlardan o'tadi.

Xorij olimlaridan Adelstein va Pival yozma nutqning asosi sifatida quyidagi beshta sifatni keltirib o'tadi: qiziqarlilik, aniqlik, lo'ndalik, ta'sirchanlik, ishonchlilik va yozuvchining fikri. Jeremy Harmer ham ushbu olimlarning fikrini qo'llab-quvvatlaydi. Paul Davies o'z asarlarida yaxshi yozma nutq yaratish ko'nikmasi ko'p

o'qish, ba'zi maxsus mashg'ulotlar va ko'p miqdorda shug'ullanish orqali shakllanishini ta'kidlab o'tadi. Yozish oson jarayon emas, u ongli ravishda aqliy kuchni talab etadi. Yozish uchun bir qancha jummalarni o'ylaymiz, ularni tartibga solamiz, birlashtiramiz va ularni kodlashtirib yozamiz. "Yozma nutq so'zni boshqarish san'atini rivojlantiradi", – deb yozadi Mark Tulliy Sitseron. Yuqoridagi ma'lumotlarni o'rganish davomida shuni ko'rishimiz mumkinki, o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi omillar juda ko'p. O.Madayev o'quvchilarning yozma nutqini rivojlantirishda biror shaxs yoki narsa-hodisani ta'riflash, rasm asosida matn yaratishga doir turli ko'rinishdagi topshiriqlarning samarasi haqida ham to'xtalib o'tadi. Shuningdek, narsa-hodisalarni tasvirlash usuli uchun quyidagi mazmundagi matnlarni yaratish topshiriqlarini berishni sanab o'tadi: alohida narsa-buyumlarni tasvirlash, hayvonlar tasvirini yaratish, muayyan maskanni tasvirlash, binoni tasvirlash, tabiatni tasvirlash, insonning tashqi qiyofasini tasvirlash, harakatni tasvirlash. Yozma nutqni rivojlantirishda o'qituvchi tomonidan tanlanadigan vazifalar turi ham muhimdir. O'qituvchi tasodifiy topshiriqlardan foydalana olmaydi, lekin u faoliyat sifatini tekshirishi kerak. Yozma nutq mashqlarini tanlashda ba'zi bir mezonlarni hisobga olishi kerak. Ya'ni tavsiya qilinayotgan topshiriqlar o'quvchilarni qiziqтира olishi, ularning o'zlashtirish darajasiga mos kelishi, mazmun o'quvchilar kundalik hayoti bilan bog'liq bo'lishi, o'ta darajada murakkab bo'lmasligi, shaxsiy qarashlarni bayon eta olish muvofiqligini ta'minlanishi, interaktiv usullarni qo'llash asosida bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Yozma nutqni rivojlantirish uchun tanlangan mashg'ulot mavzulari dars berilayotgan vaqt uchun dolzarb va o'quvchi uchun qiziq bo'lishi kerak. Shunday mavzu tanlanishi kerakki, bola o'sha haqida fikr bildirish istagi kuchli bo'lsin. U xoh kecha bo'lib o'tgan futbol matchi bo'lsin yoki mashhur serial bo'lsin. Mazkur masalalarga bo'lgan qiziqishdan bola kognitiv rivojlanishini ta'minlash uchun samarali foydalanishi mumkin. Matndan ma'lum kommunikativ vazifada qo'llangan so'z va so'z birikmalarini topish, matn ichidan matnning bir butunligini ta'minlab turishga xizmat qiladigan vositalarni aniqlash, matn va uning

boshqa muallif tomonidan yozilgan bayonini qiyoslash kabi mashqlar yozma nutqning charxlanishiga xizmat qiladi. [Azimova, 2019: 16].

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yozma nutqda fikrni izchil bayon etish olish – bu o'quvchilarning mantiqiy fikrlashi, til boyligi hamda uslubiy savodxonligining muhim ko'rsatkichidir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o'quvchilarning yozma nutqida izchillikning yo'qligi ko'plab omillar, jumladan, metodik yondashuvlardagi kamchiliklar, yozish mashqlari turlarining cheklanganligi hamda o'qituvchining til o'stirishdagi faoliyati bilan bog'liq. Shu bois, fikrni aniq, mantiqiy va izchil bayon etish olish malakasini rivojlantirish uchun integrallashgan yondashuvlar, bosqichma-bosqich yozma mashqlar tizimi hamda o'quvchilarning individual yondashuvini hisobga oluvchi metodikalar muhim ahamiyat kasb etadi. Taklif etilgan tavsiyalar esa mazkur muammoning samarali yechimini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jeremy Harmer, How to teach writing, (Malaysia: Pearson Education Limited, 2004), P.5.
2. Luu Trong Tuan, Teaching Writing through Genre Based Approach. Theory and Practice in Language Studies, vol. 1, No 11 November (2011), P.1471
3. Madayev.O, Sobirov.A, Xolmonova.Z, Toshmirzayeva.Sh, Ziyodullayeva.G, Shamsiyeva.M. Yozma ish turlari: insho, bayon, diktant, 61-63-betlar.
4. Paul Onsare Onchera and Beatrice N. Manyasi, Functional Writing Skills for Effective Communication: The English Language Classroom in Kenya, Journal of Emerging Trends in Educational Research and Policy Studies, 2013. P. 843.
5. Sayfullayev A.R. Insho o'tkazish metodi haqida//O'zbek maktablarida ona tili va adabiyot darslari samaradorligini oshirish: Ilmiy maqolalar to'plami. – Toshkent: O'zPFITI, 1990. – 14-bet.
6. Sayfullayev A.R. IV-VI sinfl arda insho o'tkazish // O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasini takomillashtirish masalalari. – Toshkent: O'zPFITI, 1983. – 3-4-bet.
7. Yo'ldoshev R.A. Insholardagi matniy xatolar, ularni tuzatish metodikasi. – Toshkent, 2018. – 9-bet.